

MAHALLIY VAKILLIK ORGANLARIDA DEPUTATLARNING SIYOSIY-HUQUQIY MAS'ULIYATI VA ULARNI CHAQIRIB OLISH MASALALARI

Nazarov Elbek Alimovich

Urganch Davlat universiteti katta o'qituvchisi

@elbek0484@umail.uz

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 16.12.2025

Revised: 17.12.2025

Accepted: 18.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

mahalliy vakillik
organlari, xalq
deputatlari Kengashlari,
deputat, siyosiy-huquqiy
mas'uliyat, chaqirib
olish instituti,
hisobdorlik, demokratik
boshqaruv.

Mazkur maqolada mahalliy vakillik organlari — xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining siyosiy-huquqiy mas'uliyati tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hamda demokratik boshqaruv tizimidagi o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, deputatlarni chaqirib olish instituti vakillik demokratiyasining muhim elementi sifatida ko'rib chiqilib, uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va amaldagi qonunchilikdagi tartib-taomillari, deputatlarni chaqirib olish jarayonlari bilan bog'liq xorij tajribasi yoritiladi. Maqolada deputatlarning saylovchilar oldidagi hisobdorligini ta'minlashda ushbu institutning ahamiyati tahlil qilinadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jarayonida mahalliy vakillik organlarining jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xalq deputatlari Kengashlari aholi manfaatlarini ifodalovchi vakillik organlari sifatida mahalliy davlat hokimiyati tizimida muhim bo'g'in hisoblanadi. Ushbu organlar faoliyatining samaradorligi esa, avvalo, deputatlarning saylovchilar oldidagi siyosiy-huquqiy mas'uliyati va hisobdorligi bilan bevosita bog'liqdir.

Deputatlarning siyosiy-huquqiy mas'uliyati ularning saylovchilar ishonchini oqlashi, o'z vakolatlarini vijdonan amalga oshirishi hamda qonunlarga qat'iy rioya etishini taqozo etadi.

Shu ma'noda, deputatlarni chaqirib olish instituti vakillik demokratiyasining muhim mexanizmlaridan biri bo'lib, u deputat faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur institut orqali deputatlarning mas'uliyati kuchaytiriladi, ularning aholiga yaqinligi va manfaatdorligi oshiriladi. Deputatlarni chaqirib olish tartib-taomillarining murakkabligi, ularning samaradorligi masalasi hamda ushbu institutdan foydalanish darajasi ilmiy jihatdan chuqur tahlil etishni talab etadi.

Deputatlar, Mahalliy kengashlarning vakolat muddatiga, ya'ni besh yilga saylanadi. Lekin ularning vakolatlari muddatidan oldin ham, quyidagi hollardatugatilishi mumkin:

- o'z arizasiga binoan;
- deputatlikka nomuvofiq lavozimga saylangan yoki tayinlangan bo'lsa;
- unga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi bo'lsa;
- deputat chaqirib olinsa;
- deputatni sud muomalaga layoqatsiz deb topsa;
- sudning qonuniy kuvhga kirgan qaroriga asosan, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topilsa;
- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganda;
- vafot etsa;
- Kengash muddatidan avval tarqatib yuborilsa.¹

“Xalq deputatlari mahalliy kengashi deputatini, o'zbekiston respublikasi oliy majlisining qonunchilik palatasi deputatini va senati a'zosini chaqirib olish to'g'risida”gi Qonunga muvofiq Deputatni, senatorni chaqirib olish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

deputatning, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini jinoiy, fuqaroviy, ma'muriy hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa turdagi javobgarlikka olib kelishi mumkin bo'lgan tarzda buzganligi;

deputatning, axloq, deputatlik odobining umum e'tirof etilgan normalarini qo'pol ravishda buzuvchi va deputat, senator nomiga dog' tushiruvchi hamda davlat hokimiyati vakillik organlarining obro'siga putur yetkazuvchi harakatlar, nojo'ya ishlar sodir etganligi;

deputatning, qonunchilikda nazarda tutilgan o'z vazifalarini muntazam ravishda, uzrli sabablarsiz bajarmaganligi, shu jumladan tegishli xalq deputatlari Kengashlarining topshiriqlarini bajarmaganligi;

¹ Konstitutsiyaviy huquq.Darslik, T-2020.332-bet

deputatning uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi.

“Saylovchilarning ishonchini oqlay olmagan, shuningdek, uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmagan deputat qonunda belgilangan tartibda chaqirib olinishi mumkin.”²

Qonunchilikni, axloq va deputatlik odobi normalarini buzgan, o'z vazifalarini muntazam ravishda bajarmayotgan deputatni, chaqirib olish zarurligi to'g'risidagi qaror tegishincha xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Deputatni, chaqirib olish masalasini ko'rish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qonunchilikda belgilangan tartibda kiritilgan so'rovi, shuningdek uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiyaning taklifi asos bo'lishi mumkin.

Deputatning, qonunchilikni buzganligi dalillariga oid materiallar xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi tomonidan tegishincha viloyat, tuman, shahar prokuroriga yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga dastlabki tarzda ko'rib chiqish va ushbu masala yuzasidan xalq deputatlari Kengashining deputatlik odobi qo'mitasiga (komissiyasiga) xulosa taqdim etish uchun topshiriladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi deputatlik odobi qo'mitasining (komissiyasining) va prokurorning xulosalarini eshitish yakunlari bo'yicha deputatni chaqirib olish haqidagi masalaning qo'yilishi asosliligi yoxud asossizligi to'g'risida qaror chiqaradi.

Chaqirib olish to'g'risidagi masalasi qo'yilgan deputatning hamda mazkur masalaga doir materiallarni o'rgangan va tayyorlagan prokurorning fikri xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining majlisida eshutilishi mumkin.

Chaqirib olish to'g'risidagi taklif asosli deb e'tirof etilgan taqdirda davlat hokimiyati vakillik organining tegishli qarori deputatni chaqirib olish bo'yicha ovoz berishni tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi.

Qonunchilikka muvofiq deputatni chaqirib olish u saylangan okrug saylovchilarining yashirin ovoz berishi yo'li bilan amalga oshiriladi. Deputatni chaqirib olish bo'yicha ovoz berishni Markaziy saylov komissiyasi deputatni saylash uchun belgilangan tartibda tashkil etadi.

² “Konstitutsiyaviy huquq”. Darslik. T-2024.627-bet

Markaziy saylov komissiyasi davlat hokimiyati vakillik organlarining deputatni chaqirib olish masalasi bo'yicha ovoz berishni o'tkazish zarurligi to'g'risidagi qarorini olgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida qonunga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining deputatini chaqirib olish bo'yicha okrug komissiyasi tuzilishini ta'minlaydi hamda ovoz berish vaqti va joyini tayinlaydi. Markaziy saylov komissiyasi bu haqda tegishincha xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashini xabardor qiladi. Deputatni chaqirib olish ishlarini tashkil etish tegishli okrug komissiyasi zimmasiga yuklanadi.

Agar ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning yarmidan ko'pi deputatning chaqirib olinishini yoqlab ovoz bergan bo'lsa, u chaqirib olingan hisoblanadi. Agar ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning yarmidan kam deputatning chaqirib olinishini yoqlab ovoz bergan bo'lsa, shuningdek ovoz berishda ovoz berish ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning o'ttiz uch foizidan kam ishtirok etgan bo'lsa, deputatni chaqirib olish rad qilingan hisoblanadi. Deputatning chaqirib olinishini yoqlab va chaqirib olinishiga qarshi berilgan ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, deputat o'z vakolatlarini saqlab qoladi. Markaziy saylov komissiyasi yoki tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi ovoz berish yakunlariga ta'sir qilgan qoidabuzarlikka yo'l qo'yilganligi tufayli ovoz berish natijalarini haqiqiy emas deb topishi mumkin. Bunday holda takroriy ovoz berish tayinlanib, kechi bilan ikki haftalik muddat ichida o'tkaziladi. Markaziy saylov komissiyasi, tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi okrug komissiyasidan olingan bayonnoma asosida deputatni chaqirib olish bo'yicha ovoz berish natijalarini besh kunlik muddat ichida ro'yxatga oladi hamda bu haqda ommaviy axborot vositalari orqali xabar qiladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi deputatini chaqirib olish bo'yicha ovoz berish yakunlari to'g'risida tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi tegishli davlat hokimiyati vakillik organini va Markaziy saylov komissiyasini xabardor qiladi. Deputatning vakolatlari, agar ovoz berish natijasida deputat chaqirib olingan bo'lsa, uni chaqirib olish bo'yicha ovoz berish natijalari ro'yxatga olingan paytdan e'tiboran muddatidan ilgari tugatilgan hisoblanadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi deputatni chaqirib olish uchun yetarli asoslar bo'lgan materiallar tushgan kundan e'tiboran uch kunlik muddatdan kechiktirmay deputatga tushgan hujjatlarning nusxalarini ilova qilgan holda yozma xabarnoma yuboradi. Chaqirib olish haqidagi masalasi qo'yilgan deputat saylovchilar bilan uchrashishga, saylovchilarning yig'ilishlarida, davlat hokimiyati vakillik organlarining sessiyalari va majlislarida chaqirib olinishi haqidagi masala ko'rib chiqilayotganda ishtirok etishga hamda

o'zini himoya qilib so'zga chiqishga haqli. Deputatni chaqirib olish haqidagi masala qo'yilishiga sabab bo'lgan yolg'on axborotni bilaturib taqdim etgan shaxslar qonunga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Deputatni chaqirib olish ishlarini tashkil etish tegishli okrug komissiyasi zimmasiga yuklanadi. Deputatni chaqirib olish bo'yicha ovoz berishni o'tkazish uchun ovoz berishga kechi bilan yigirma besh kun qolganida ovoz berish uchastkalari va kechi bilan yigirma kun qolganida uchastka komissiyalari tuziladi. Tegishli saylov okrugi saylovchilarining ro'yxatlari ovoz berish kuniga kechi bilan o'n kun qolganida hamma tanishib chiqishi uchun taqdim qilinadi. Okrug va uchastka komissiyalarining vakolatlari muddati deputatni chaqirib olish bo'yicha ovoz berish yakunlari chiqarilganidan keyin tugaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, deputatlarni chaqirib olish instituti asosan vakillik demokratiyasini mustahkamlash, saylovchilarning siyosiy faolligini oshirish hamda vakillarning hisobdorligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu institut, ayniqsa, AQSh, Shvetsariya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy davlatlarida turli shakllarda qo'llaniladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida deputatlarni chaqirib olish instituti asosan shtatlar darajasida tartibga solinadi. AQShning bir qator shtatlarida (Kaliforniya, Kolorado, Michigan va boshqalar) mahalliy vakillik organlari a'zolari, shuningdek, ayrim hollarda ijro etuvchi mansabdor shaxslar saylovchilar tashabbusi bilan chaqirib olinishi mumkin. Bunda chaqirib olish jarayoni, odatda, saylovchilarning ma'lum foizda imzo to'plashi, maxsus referendum (recall election) o'tkazilishi va deputat faoliyatiga nisbatan ishonchsizlik bildirilishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizm ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslanadi.

Shvetsariya tajribasida to'g'ridan-to'g'ri demokratiya institutlari keng rivojlangan bo'lib, deputatlarni chaqirib olish mexanizmi ayrim kantonlar qonunchiligida mustahkamlangan. Bu yerda saylovchilar deputat faoliyatidan norozilik bildirgan taqdirda, tashabbus guruhi orqali chaqirib olish masalasini kun tartibiga qo'yishlari mumkin.

Germaniyada deputatlarni chaqirib olish instituti federal darajada keng qo'llanilmaydi. Biroq ayrim yer (land) va munitsipal darajadagi vakillik organlari a'zolariga nisbatan ishonchsizlik votumi yoki muddatidan oldin vakolatni tugatish mexanizmlari mavjud. Germaniya tajribasida deputatlik barqarorligi va vakillik mustaqilligi ustuvor hisoblanadi.

Yaponiya Sharqiy Osiyoda deputatlarni chaqirib olish instituti eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda mazkur mexanizm bevosita demokratiya

elementi sifatida qaraladi. Mahalliy kengash deputatlarini chaqirib olish saylovchilarning tashabbusi asosida amalga oshiriladi. Bunda qonunchilikda belgilangan miqdorda saylovchilar imzo to'plashi talab etiladi. Imzolar yetarli deb topilgan taqdirda, masala mahalliy referendumga qo'yiladi. Referendumda ishtirok etgan saylovchilarning ko'pchiligi chaqirib olishni qo'llab-quvvatlasa, deputat vakolatlari muddatidan oldin tugatiladi. Ushbu mexanizm deputatlarning saylovchilar oldidagi siyosiy javobgarligini kuchaytirish, mahalliy boshqaruvda ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Janubiy Koreyada deputatlarni chaqirib olish instituti Yaponiya modeliga o'xshash bo'lsa-da, amaliy jihatdan ancha cheklangan. Mahalliy kengash a'zolarini chaqirib olish uchun saylovchilarning nisbatan yuqori foizda imzo to'plashi talab etiladi. Bundan tashqari, referendum natijalarining haqiqiy deb topilishi uchun minimal ishtirok darajasi belgilangan. Mazkur mexanizmning murakkabligi va protsessual talablarning qat'iyiligi sababli chaqirib olish holatlari kam uchraydi. Shunga qaramay, ushbu institut deputatlarning siyosiy mas'uliyatini oshiruvchi preventiv vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoyda deputatlarni chaqirib olish instituti normativ-huquqiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, u demokratik mexanizm sifatida emas, balki markazlashtirilgan siyosiy nazorat vositasi sifatida faoliyat yuritadi. Mahalliy xalq vakillari kengashlari deputatlari yuqori darajadagi vakillik organlari yoki Kommunistik partiya organlarining qarorlari asosida chaqirib olinishi mumkin. Qarorlar asosan partiyaviy intizom, siyosiy ishonch va markaziy hokimiyat manfaatlari bilan bog'liq omillar asosida qabul qilinadi.

Mahalliy vakillik organlarida deputatlarning siyosiy-huquqiy mas'uliyati vakillik demokratiyasining samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining saylovchilar oldidagi hisobdorligi va javobgarligi ularning vakolatlarini qonuniy, ochiq va mas'uliyatli amalga oshirishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Deputatlarning siyosiy-huquqiy mas'uliyatini oshirishda faqatgina chaqirib olish instituti bilan cheklanib qolmasdan, deputatlik faoliyati ustidan doimiy jamoatchilik va parlament nazoratini kuchaytirish, deputatlarning saylovchilar bilan muloqotini tizimli yo'lga qo'yish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy vakillik organlarida deputatlarning siyosiy-huquqiy mas'uliyatini kuchaytirish va ularni chaqirib olish institutini takomillashtirish demokratik boshqaruvni rivojlantirish, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023
2. “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2.09.1993
3. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni. 12.12.2002
4. “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2.12.2004
5. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. T-2024
6. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik, T-2020

